O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

# BUYRUQ

2022-yil «30» dekabr № 445-ij Samarqand sh.

**2022/2023-o'quv yilida magistratura mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan magistrantlarning dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilarini tasdiqlash haqida**

1. 2022/2023-o'quv yilida universitetda mavjud magistratura mutaxassisliklarining 1-bosqichida ta'lim olayotgan magistrantlarning dissertatsiya mavzulari, ularning ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xalqaro ta`lim dasturlari markazida mavjud magistratura mutaxassisliklarining 1-bosqichida ta'lim olayotgan magistrantlarning ilmiy-tadqiqot yo'nalishi, ularning ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2022/2023-o'quv yilida universitetda mavjud magistratura mutaxassisliklarining 2-bosqichida ta'lim olayotgan ayrim magistrantlarning ilmiy rahbarlari mehnat shartnomasi bekor bo'lganligi, boshqa ishga o'tganligi, o'quv yuklamalarida o'zgarish bo'lganligi sababli ularning ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Magistrantlarning ilmiy-pedagogik ishi, ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha shaxsiy kalendar ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi magistrant tomonidan tayyorlangan hisobot har oyda kafedra yig'ilishlarida, kafedra mudiri tomonidan tayyorlangan hisobot har o'quv semestri yakunida fakultet ilmiy kengashlarida eshitilib, muhokama etilsin va ularning monitoringi olib borilsin.

**Muddat:** har oyda, doimiy ravishda.

**Mas'ul:** ilmiy rahbarlar va kafedra mudirlari, magistratura markazi, institut direktorlari, fakultet dekanlari.

5. Magistrantlarning ilmiy-pedagogik ishi, ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha shaxsiy kalendar ish rejasining bajarilishi va baholash mezonlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi nizomga muvofiq universitet kengashining 2022-yil 31-martdagi 9-son yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan "Samarqand davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari

Buyurtma № ___. Adadi 200 nusxa

to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma asosida har bir kafedrada ishlab chiqilsin va amalga oshirilsin.

**Muddat**: o‘quv yili davomida.

**Mas’ul**: magistratura markazi, o‘quv-uslubiy ishlar bo‘yicha bosh boshqarma, institut direktorlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

6. Magistrantlarni ilmiy maqolalarini yozish, chop etish va ilmiy konferensiyalarda ishtirok etishi, turli tanlovlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidagi davlat stipendiyalari tanlovlariga qatnashishlari uchun manzilli chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish yo‘lga qo‘yilsin.

**Muddat**: o‘quv yili davomida.

**Mas’ul**: ilmiy rahbarlar va kafedra mudirlari, magistratura markazi, ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi.

7. Magistrlik dissertatsiyalarini rasmiylashtirish 2015-yil 2-martda tasdiqlangan “Magistratura to‘g‘risida Nizom”, adabiyotlarga havolalar Oliy attestatsiya komissiyasi o‘rnatgan tartib-qoidalar va talablari asosida bo‘lishi ta’minlansin.

**Mas’ul**: ilmiy rahbarlar va kafedra mudirlari.

8. Magistrlik dissertatsiyalariga taqrizchilar ilmiy tadqiqotlar boshqarmasidan tasdiqdan o‘tkazilgandan so‘ng tanlansin va tayinlansin. Talabalarni himoyaga tayyorlash, himoyani talab darajasida o‘tkazish mas’ulligi bevosita mutaxassis tayyorlovchi kafedra mudirlari va magistratura markazi zimmasiga yuklatilsin.

**Muddat**: to‘rtinchi semestr.

**Mas’ul**: kafedra mudirlari, magistratura markazi, ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi.

9. Mazkur buyruqning barcha institutlar, fakultetlar, bo‘limlarga yetkazilishini ta’minlash devonxona mudiri zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish magistratura markazi boshlig‘i **N.Nizamova** zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** magistratura markazi boshlig‘i **N.Nizamova** va xalqaro ta’lim dasturlari markazi direktori **S.Umarov** tayyorlagan buyruq loyihasi, yuridik bo‘lim boshlig‘i **A.Tursunov** roziligi, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor **H.Xushvaqtovning** munosabat belgisi.

**Rektor** **R.Xalmuradov**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022-yil 30-dekabrdagi 445-ij sonli buyrug'iga 1-ilova**

**2022/2023-o'quv yilida universitetda mavjud magistratura mutaxassisliklarining 1-bosqichida ta'lim olayotgan magistrantlarning dissertatsiya mavzulari, ularning ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilari haqida**

## MA'LUMOT

| № | Magistrantning F.I.Sh. | Mutaxassislik shifri va nomi | Dissertatsiya mavzusi | Annotatsiyasi | Ilmiy rahbar F.I.Sh, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni | Ilmiy maslahatchi, F.I.Sh ilmiy darajasi, unvoni va hamkor tashkilot yoki muassasa nomi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qurbonova Muharram Jurabekovna | 70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) | She'riy matnning sintaktik xususiyatlari (Xurshid Davron she'riyati misolida) | Xurshid Davron she'riyati misolida badiiy asarlar, xususan, she'riy matnlarning sintaksisini tadqiq etish va bu jarayonda sintaktik birliklarning nazmda poetik aktuallashuvi va badiiy-estetik vazifa bajarishdagi xususiyatlarini tahlil qilish tadqiqot ishining asosiy maqsadi sanaladi. | f.f.n., dots. O.S.Yusupova | f.f.d.prof. G. Jumanazarova JizDPU |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Qarshiyeva Zamira Sadriddin qizi | 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) | Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida ruboiy janri poetikasi | Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari hazrat Alining hikmatlariga sharh sifatida yozilgan ruboiylardan hisoblanib, ushbu magistrlik dissertatsiyasi irfoniy mavzuda yozilgan ruboiylarning poetik xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlanadi | f.f.d.prof. M.Q. Muhiddinov | PhD. H.A.Aslanova SamDCHTI |
| 3 | Tohirova Farizaxon Rustamjon qizi | 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) | Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" va Xojaning "Miftoh ul-adl" dostonlarida adolat talqini. | Mazkur magistrlik dissertatsiyasida Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi adolat timsoli ushbu doston tartibida yozilgan "Miftoh ul-adl" dostonidagi adolat talqini bilan qiyosiy tadqiq etiladi | f.f.d.prof. M.Q. Muhiddinov | PhD. H.A.Aslanova SamDCHTI |
| 4 | Umarova Intizor Abdumalik qizi | 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) | Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi | Adib romanlarida tarix haqiqatining badiiy ifodasi, uning talqini kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Alisher Navoiy obrazini yaratishdagi badiiy mahorati o'rganiladi. | f.f.d.prof. A.N.Nasirov | F.f.d. B.Karimov TDO'TAU |
| 5 | Ahmadova O'g'iloy Ozodqul qizi | 70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) | Tohir Malik nasrida diniy-ma'rifiy mavzu talqini. | Tohir Malikning nasriy asarlaridagi diniy-ma'rifiy qarashlar talqini. Uning badiiy ifodasi asosida ilgarisurilgan | F.f.d., prof. Sh.A.Hasanov | F.f.d. B.Karimov TDO'TAU |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | qarashlar, poetic talqinlarga munosabat bildiriladi. | | |
| 6 | Умирова Эльнара Бахтиёровна | 70230101 – Лингвистика (русский язык) | Семантическая оппозиция ТРУД-ЛЕНЬ как отражение национальной культуры. | Рассмотрение семантической оппозиции труд – лень позволит установить общие и дифференцированные признаки образности паремических единиц в неродственных языках, выявить положительное и отрицательное отношение к труду, отраженное в пословицах и поговорках русского и узбекского языков, разработать классификацию паремий, включающих элементы семантической оппозиции ТРУД – ЛЕНЬ. | Д.ф.н.проф. А.С. Щербак | к.ф.н., доцент Л.С.Моисеева, кафедры русского языка ТГУ им. Г.Р. Державина |
| 7 | Холдорова Шохиста Обиддиновна | 70230101 – Лингвистика (русский язык) | Развитие словарного состава современного русского языка и способы его пополнения. | В магистерской диссертации будут рассмотрены основные способы пополнения русского языка новыми словами – неологизмами, заимствованными словами, а также теми лексическими | Доц.М.А. Хафизова | Д.ф.н.доц. Г.Х.Умурова кафедры русского языка и литературы СамГИИЯ |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | единицами, которые проникли в русский язык в 2020 – 2022 гг. в связи с пандемией коронавирусной инфекции. | | |
| 8 | Холикова Мохинур Жахонгир қизи | 70230104 Литературоведение (Русская литература) | Символы и мотивы Баха Ахмедова. | В диссертации предпологается исследовать сюжетную основу, образную систему и композиционный строй отдельных произведений Баха Ахмедова | к.ф.н.доцент А.С Абдуллаева | Доц. Л.Х Абдуллаева (СГИИЯ) |
| 9 | Bobonorova Dildora Berdiyor qizi | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqandda etnomadaniy jarayonlar tarixi. | Mazkur davrda Samarqand Rossiya imperiyasining mustamlaka hududlaridan biri hisoblanib, mustamlaka hudud sifatida tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Zarafshon okurugi sifatida tashkil etildi. 1886 yildan boshlab mazkur okurug Samarqand viloyati nomi bilan yuritila boshlandi. Imperiya mustamlakasi davrida Samarqand hududdida o'ziga xos etnomadaniy va etnodemografik jarayonlar | PhD Sh.T. Ravshanov | t.f.f.d.PhD. T.O. Ahmedov O'z FA tarix instituti |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | kuzatildi. Mazkur mavzu orqali bu davrda viloyatda kechgan etnomadaniy va etnodemografik jarayonlarni qiyosiy tahlil etib, yoritish maqsad qilingan. | | |
| 10 | Abdulxayev Saydullo Ubaydullo o`g`li | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | Samarqand tarixi fani mavzularining brayl alifbosidagi tahlili | Samarqand tarixini o'ganish qadimdan ilm ahli va keng jamoatchilik e'tiborini tortib kelgan. Mustaqillik yillarida Samarqand tarixini o'rganish yangicha bosqichga chiqdi. Bu borada nafaqat mahalliy tadqiqotlar, balki xorijiy tadqiqotlar hajmi ham yanada jadallashib, bormoqda. Shu munosabat bilan olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarni o'rganish, tahlil qilish dolzarb masala bo'lib bormoqda. Mazkur magistrlik dissertasiya ishida Samarqand tarixiga oid bo'lgan tarixiy jarayonlarni brayl alifbosida tahlil qilish maqsad qilingan. | PhD. Sh.T. Ravshanov | t.f.n.PhD. F.Sh. Shomukarramova O'z FA tarix instituti |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Bu ish Samarqand tarixiga doir adabiyotlarni ommalashtirilishiga va keng targ`ib qilinishiga xizmat qiladi. | | |
| 11 | Ostonov Sherali Baxtiyor o`g`li | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | 1920-1930 yillarda milliy ziyolilarga nisbatan qatog'on siyosatining amalga oshirilishi (Samarqand vioyati misolida) | Sobiq Ittifoqning qatag`on siyosati natijasida millionlab insonlarning qonlari to`kildi. XX asrning 30 yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi.<br>Sobiq sovet hukumati asosan xalqimizning eng ma'rifatli vakillarini, ziyolilarimizni qatag'on qildi. Qatag'on siyosati Iosif Stalin hukumat tepasida bo'lgan davrda kuchaydi. Sovet Ittifoqi Qahramonlari, mashhur fan-arboblari, mohir diplomat, shoir va yozuvchi, rassomlar ham qatag`onga uchradilar. Bu albatta sovet davlatining qatag`onlik siyosati natijasi edi. Aynan ushu ishda qatag`on siyosati Samarqand viloyati misolida o`rganiladi | Dots. S.I.Muxiddinov | t.f.n.PhD. F.Sh. Shomukarramova O'z FA tarix instituti |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | va tahlil qilinadi. Mavzuga doir arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar yordamida Samarqandlik ziyolilarga bo`lgan munosabat va ularning qatag`on qilinishi sabablari va oqibatlari ochib beriladi. | | |
| 12 | Ачилова Дилдора Бахтиёр қизи | 70220301-Тарих (йўналишлар ва фаолият тури бўйича) | "По просторам евразийских земель: изучение раннего средневековья с Ибн Фадланом". | Данная исследовательская работа направлена на освещение исторических процессов через труды историка и путешественника Ибн Фадлана. | Доц. Н.Ходжаев | Доц. М.Ҳошимова |
| 13 | Mamarahimov Parda Shuhrat o'g'li | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | "Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi"mavzularining Brayl alifbosidagi tahlili | "Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi" tarix fanining asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Qadimgi davrdan to bugungi kunimizgacha bo'lgan diplomatiya va xalqaro munosabatlar tarixi bo'yicha e'lon qilingan o'zbek tilidagi o'quv nashrlaridan darslar jarayonida foydalanilmoqda. Ammo mana necha yildirki ushbu yo'nalishda Brayl alifbosidagi ishlar e'lon | PhD S.O'sarov | Dots. M.Hoshimova |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | qilinmagan. Holbuki, har yili tarix fakulteti talabalariga mazkur fan asosiy mutaxassislik fani sifatida o'tib kelinmiqda. | | |
| 14 | Imomov Ulug'bek Ismoilovich | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilishi. | Samarqand tarixining tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi barcha davrlarda asosiy tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining tadqiq qilish usullari ko'pgina tarixshunos olimlarning bosh mavzusi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida G'arbiy Yevropa tarixshunos olimlarning tadqiqot ishlari va ularning ahamiyatini ochib berish, G'arbiy Yevropa tarixshunosligida Samarqand tarixining o'rganilganlik darajasini tahlil etish asosiy maqsad qilib olingan. | t.f.d.prof. E.B. Ergashev | t.f.f.d. (PhD), dots T.O.Ahmedov O'zRes FA Tarix instituti Katta ilmiy xodimi |
| 15 | Mamanov Jamol Xudayberdiyev | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va | Tarixshunoslik fani asosiy mavzularining Brayl | Tarixshunoslik tarix fanlari sohasida yaratilgan va yurtimiz tarixining ibtidoiy | T.f.f.d.PhD.O'. B.Mattiyev | Akademik.D.Y. Yusupova O'zRes FA |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ich | faoliyat turi bo'yicha) | alifbosidagi tahlili. | jamoa tuzumidan hozirgi davr voqelarini o'zida aks ettirgan tarixiy asarlarning jamlanmasi hisoblanadi.Yaratilgan asarlar, ularning mualliflari va tarixiy davr, tarixiy voqealarning o'rganilish darajasini Brayl alifbosida magistrlik dissertatsiyasi asosida tahlil qilish uning tarixshunoslikdagi ahamiyatini ochib berish maqsad qilib olingan. | | Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Katta ilmiy xodimi, |
| 16 | Abdumutalova Munisa Pulat qizi | 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | Turkistonda sanoat ishlab chiqarishni shakllanishi va transformatsion jarayonlar (XIX asr oxiri-XX asr boshlari) | Ushbu magistrlik dissertatsiyasi arxiv materiallari va manbalarga tayangan holda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrida Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning shakllanishida tranformatsion jarayonlar to'g'risida fikr yuritishdan iborat. | t.f.d, professor Sh.S. G'afforov | t.f.d, professor Sh.A.Hayitov BuxDU |
| 17 | Burxonov Sheroz Shuxrat o'g'li | 70220301- Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | Islohotlarning yangi bosqichida O'zbekistonда maktabgacha ta'lim tizimining | Ushbu magistrlik dissertatsiyasi dasturiy va maxsus adabiyot, OAB, joriy arxiv materiallarini o'rganish asosida maktabgacha ta'lim | t.f.n,dotsent M.I. Nasrullayev | PhD, dotsent, O'.Xudayorov, Toshkent Iqtisodiyot universiteti |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | rivojlanishi (2016-2024 yy). | tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ularning dastlabki natijalari tahlil qilinadi. To'plangan tajribani o'rganish asosida tizimni yanada rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi. | | Samarqand filiali gumanitar fanlar kafedra mudiri |
| 18 | Jumayev Temur Jamol o'g'li | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv qo'llanmasini Brayl alifbosiga tarjima qilish va uning ilmiy-uslubiy ahamiyati. | Ushbu ilmiy tadqiqot ishida O'zbekistonning eng yangi tarixi davrimasalalari Brayl alifbosida yoritib beriladi. | t.f.n,dotsent M.I.Nasrullayev | T.f.n., dots. R.Mardonov TATU Samarqand filiali |
| 19 | Mamatov Bektosh Tolibjon o'g'li | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | Bahodir Yalangto'shning Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tutgan o'rni. | Ushbu dissertatsiyada XVII asrda Buxoro xonligining murakkab siyosiy hayotida Bahodir Yalangto'shning davlat arbobi va harbiy sarkarda sifatida muhim rol o'ynaganligi hamda uning Samarqandda ilm-fanni rivojlantirish va obodonlashtirishga katta hissa qo'shganligi masalalari ilmiy tadqiq etilib ochib beriladi. | t.f.d., dotsent G.Normurodova | T.f.n., dots. D.Sangirova GulDU |
| 20 | Lutfiyev Orif Kamaridinovic | 70220301-Tarix | "O'zbekiston davlatchiligi tarixi" | Ushbu ilmiy tadqiqot ishida O'zbekiston xududida eng | t.f.n.,dotsent R.SH. | t.f.n A.Berdimurodov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | h | (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | fanini Brayl alifbosiga tarjima qilish va uning ilmiy-uslubiy ahamiyati. | qadimdan hozirgacha bo'lgan davrlarda o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini Brayl alifbosida yoritib beriladi. | Xoliqulov | O'zR FA Arxeologiya markazi |
| 21 | Rashidov Xasan Mustafaevich | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | "O'zbekiston tarixini yoritishda Samarqand va unga tutash hududlar tosh davri jamoalarining moddiy madaniyatining o'rni" | Samarqand shahri va unga tutash hududlarda o'rta paleolit, so'nggi paleolit, mezolit va neolit davriga oid qator yodgorliklarda qazilma ishlari amalga oshirilgan. Ushbu magistrlik dissertasiyasida O'zbekiston tarixini yoritishda Samarqand va unga tutash hududlar tosh davri jamoalarining moddiy madaniyatining o'rni masalasiga oydinlik kirirtiladi. | T.f.d prof. N.U.Xolmtov. | t.f.d A.Raimkulov Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi. |
| 22 | Suyunov Faridjon Abdumalik o`g`li | 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | "Qadimgi turkiy va sug'd yozuvlarining O'zbekiston tarixini o'rganishdagi ahamiyati" | Qadimgi dunyo tarixini yoritishda qadimgi bitik va yozuvlarning ahamiyati beqiyos. Magistrlik dissertasiyasida O'zbekiston hududidagi qadimgi yozuvlarning tarixiy manba va arxeologik tadqiqotlardagi tahlili keltiriladi. | PhD. dots.A. Begmatov | t.f.n. A.Berdimurodov Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi. |
| 23 | Rizoqulov | 70220301- | "Qadimgi Sug'd | Sharq va G'arb | PhD. dots.A. | PhD. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Sarvarjon Zafar o`g`li | Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) | antik va o'rta asrlar davri savdo va diplomatik munosabatlarining O'zbekiston tarixini o'rganishdagi o'rni" | mamlakatlarini iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy jihatdan bog'lab turgan Sug'dda juda qadimlardanoq shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, san'at va madaniyat yuksak darajada rivojlangan. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda dissertant bugungi kun arxeologiya fani uchun qiziqarli va dolzarb mavzuni tanlagan. | Begmatov | A.Sandiboyev, Samarqand arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi |
| 24 | Tollibayeva Malika Ulmasjon qizi | 70420101-Advokatlik faoliyati | "Iqtisodiy nizolarni hal qilishda advokat ishtirokini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba" | Mazkur magistrlik dissertatsiyasida iqtisodiy nizolarni hal qilishda advokat huquqiy maqomi va ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Iqtisodiy nizolarni sudgacha va sud tartibida ko'rishda hamda nizolarni hal qilishning muqobil usullari bo'lgan mediatsiya va hakamlik sudlarida advokatning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro | y.f.n. A.Sh. G'ulomov | T.M.Tursunov "Madad" NNT ijrochi direktori |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | standartlar va ayrim xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganilgan holda ijobiy jihatlarini milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. | | |
| 25 | Kurbanov Rustam Boburbekovich | 70420101 Advokatlik faoliyati | "Qonun bilan aloqada bulgan voyaga yetmaganlarni huquq va manfaatlarini himoyalashda advokatning o'rni' | Mazkur magistrlik dissertatsiyasida sud huquq tizimida voyaga yetmaganlarga huquqiy yordam ko'rsatishda advokat huquqiy maqomi va ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, xalqaro standartlar va ayrim xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganilgan holda ijobiy jihatlarini milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. | y.f.n.dots. M.Z. Muqimova | Dots.D.Qurbonov |
| 26 | Boynazarova | 70310101- | Sanoat | Sa'noat korxonalari | PhD M.R. | i.f.d. prof. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Iroda Mahmud qizi | Iqtisodiyot nazariyasi | korxonalarida investitsion muhitni yaxshilashni takomillashtirish | investitsion muhitni yaxshilashni takomillashtirish hamda mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas’uliyatini oshirish tadqiqot ishini asosiy maqsadi etib belgilangan. | Mahmudova | D.A.Nasimov O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali direktori |
| 27 | Mirmadiyev Firuz Farxodovich | 70310101 – Raqamli iqtisodiyot | Raqamli iqtisodiyot sharoitida avtoservis xizmatlari sifatini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish | Aholi o’rtasida avtomobillarga bo’lgan talab mavjud raqamli iqtisodiyot sharoitda avtomobillar sonining yanada oshishiga olib kelmoqda. Avtomobillar sonining oshishi, avtomobillarning zamonaviy turlari ko’payishi ularga ko’rsatiladigan servis xizmatlari ko’lami oshishi hamda sifatli xizmatlar ko’rsatishni talab etadi. Ushbu tanlangan mavzu orqali | PhD.dots. O.E.Ernazarov | Prof. B.T.Salimov. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasi professori |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | avtoservis xizmatlari sifatini oshirishninq iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilib, ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish yo'llarini ochib berish nazarda tutilgan. | | |
| 28 | Nurmurotova Mohinur Asliddin qizi | 70510101 – Biologiya (fan yo'nalish bo`yicha) | Samarqand viloyati sharoitida Withania somnifera L.ning o'sish va rivojlanishi | Withania somnifera L. - 35 dan 175 sm gacha bo'lgan kichik buta, Ituzumdoshlar oilasiga mansub dorivor o`simlik. O`zbekistonda tabiiy sharoitda uchramaydi. Vatani Hindiston. U Hindistonning Rajasthan, Madhya Pradesh, Panjob, Utar Pradesh, Gujarat, Maxarastra kabi ko'plab quruq hududlarida o'sadi. Pokiston, Bangladesh, Nepal va Shri-Lankada ham yetishtiriladi. Shifobaxshlik xususiyatlari tufayli Janubi-Sharqiy Osiyodagi tibbiyotda eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. O'simlikning Tibbiyotda asosan ildizi ishlatiladi. Uning ildizidan turli preparatlar - kukunlar, tabletka, nastoyka, moylar | PhD. N.S. Nurullayeva | b.f.d.prof. X.Q.Haydarov SamDU Botanika kaf. mudiri SamDU Botanika bog`i |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | sifatida tayyorlanadi. Withania somnifera L. - antioksidant, qarishga qarshi, antiseptik, qonni tozalash, virusga qarshi, yallig'lanishga qarshi, immunomodulyator, yaralarni davolovchi, anabolik xususiyatlarga ega. | | |
| 29 | Sunnatova Sohibjamol Hamdilla qizi | 70610204 – Axborot tizimlari (tarmoqlar bo‘yicha) | Axborot tizimlarini ishlab chiqishda taqsimlangan texnologiyalarni qo’llash algoritmlari | Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalarni keskin rivojlanib borishi axborot tizimlarini ishlab chiqish texnologiyalarini rivojlanishiga ham olib kelmoqda. Ma’lumotlar oqimini oshishi bu ma’lumotlarni o’z vaqtida sifatli qayta ishlash usul va vositalarini ishlab chiqishga undab bormoqda. Ma’lumotlarni sifatli qayta ishlash uchun axborot tizimlariga taqsimlangan texnologiyalarni qo’llash samarali vosita hisoblanadi. Bundan kelib chiqib axborot tizimlarini ishlab chiqishda taqsimlangan texnologiyalarni | t.f.f.d. Dotsent. F.Nazarov | t.f.d.,dotsent. Nuraliyev F. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | qo'llash algoritmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Dissertatsiya ishida axborot tizimlarini ishlab chiqishda taqsimlangan texnologiyalarni qo'llash algoritmlarini ishlab chiqish masalasi qaraladi. Bunda taqsimlangan hisoblashlar, taqsimlangan algoritmlar va taqsimlangan ma'lumotlar bazasidan foydalanish algoritmlari tadqiq qilinadi. | | |
| 30 | Isoqova Sadoqat Raxmat qizi | 70610204 – Axborot tizimlari (tarmoqlar bo'yicha) | Xalq ta'limi muassasalari xodimlari malakasini oshirish jarayonlarini monitoring qilishning axborot tizimini loyihalash | Ishda xalq ta'limi muassasalari xodimlarini malakasini oshirish jarayonlarini modellashtirish, ma'lumotlar bazasi va tuzilmalarini yaratish hamda obyektga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida axborot tizimini loyihalash va ishlab chiqish masalasi muhokama qilinadi. Dissertatsiya ishida xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish tashkil etish, monitoringini yuritish jarayonlarining modellari, | t.f.n., Dotsent. A.Abdullayev | PhD, dotsent I.Xo'jayorov TATU SF Axborot texnolgiyalar kafedrasi mudiri |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | axborot tizimining ma’lumotlar bazasi, funksional modellari va ma’lumotlar tuzilmasi ishlab chiqish, qaror qabul qilishga ko‘maklashuvchi ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish va taqdim etish axborot tizimi yaratish tadqiq etiladi. | | |
| 31 | Jafarova Guzal Istamovna | 70610101-Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari | Tibbiy tasvirlarda sohalarni tahlil qilish uchun mashinali o`qitish algoritmlarini ishlab chiqish | So`nggi sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalarining rivojlanishi, shuningdek, katta hajmdagi tibbiy tasvirlarning to'planishi tibbiy tasvirlarni avtomatik tahlil qilish tizimlarini yaratish imkoniyatini ochib beradi. Ko'krak qafasi rentgenogrammasi hozirda qo'llaniladigan eng oddiy va eng keng tarqalgan tekshiruvlardan biridir. Uning avtomatlashtirilishi rentgenologlarning ish yukini sezilarli darajada kamaytiradi, ularning ish sifatini baholash imkonini beradi va tibbiy | PhD, dotsent O.R.Yusupov | t.f.d., professor Sh.X.Fozilov “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish” ilmiy-tadqiqot instituti. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | xatolar ehtimolini kamaytiradi. Ushbu ishning maqsadi rentgen tasvirlarini avtomatik tahlil qilish, ularning ish natijalarini bir-biri bilan va analoglari bilan taqqoslash uchun bir nechta mashinali o`qitish algoritmlarini amalga oshirishdir. | | |
| 32 | G‘afforov Obid Shuhrat o‘g‘li | 70530902-Yadro fizikasi va yadro texnologiyalari (qo’llash sohalari bo’yicha) | Radiovaksina. Biologik namunalarni elektron yordamida nurlantirish | Mazkur dissertatsiya ishida turli biologik obyektlarni kuchli, energiyasi taqriban 10 MeV gacha bo‘lgan elektronlar oqimi bilan nurlantirib ularning tarkibi o‘rganiladi va olingan natijalar asosida radiovaksinalar yaratiladi va amaliyotga tatbiq etiladi | Fiz-mat f.n A.N.Safarov | B.Sh.Mirzayev Radiobiologiya va biokimyo, Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri |
| 33 | Ergashev Alijon Yunus o’g’li | 70531001 Mexanika va matematika modellashtirish | Doiraviy konussimon elastik qobiq va sterjenlarning simmetrik tebranishlari | Ushbu dissertatsiya ishi doiraviy konussimon elastik qobiq va sterjenlarning simmetrik tebranishlarini tadqiq qilishga bag’ishlanadi. Doiraviy konussimon elastik qobiq va sterjenlarning simmetrik tebranish | Prof. X.Xudoynazarov | Katta o’qituvchi Z.Xudoyberdiyev |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | tenglamalari keltirib chiqariladi va hisob modeli yaratiladi. Olingan natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi, amaliy tadbiq uchun tavsiyalar beriladi. | | |
| 34 | Камолова Зарина Искандаровна | 70720801-Машинасозлик технологиси ва жихозлари (ишлаб чиқариш бўйича) | Лазерная обработка поверхности металлов для придания им новых физических свойств. | В случае придания поверхности металла определенной периодической микроструктуры, поверхность может приобрести новые физические свойства, такие как гидрофобность и гидрофильность. Формировать особую микроструктуру металла предполагается высокопрецизионным интенсивным лазерным излучением. Помимо этого, возможны научные изыскания в области повышения прочности, упругости, увеличение химической стойкости и | к.т.н.,доцет Д.В.Сафранов | к.т.н доцент. А.С.Кукаев СПбГЭТУ «ЛЭТИ» |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | других свойств различных металлов. | | |
| 35 | G'aybullayev Shuhrat Sharof o'g'li | 70530101-Kimyo (fan yo'nalishi) | Azepin halqasi tutgan 1N-almashgan-1,2,3-triazolo[4,5-d]pirimidinonlar sintezi va biologik faolligi | Tadqiqot ishi azepin halqasi tutgan 1N-almashgan-1,2,3-triazolo[4,5-d]pirimidinonlar sintezi va biologik faolligini o'rganishga bagishlanadi. Reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lishiga metilen guruhining soni, reaksion muhir va o'rinbosarlarning ta'siri keng o'rganiladi. Yangi birikmalar 1H va 13C YaMR-spektroskopiya, yuqori aniqlikdagi mass-spektrometriya usullari yordamida ifodalanadi. | k.f.d.prof. X.A.Bozorov | Prof. Guozheng Huang Anhui texnologiya universiteti |
| 36 | Salimova Shoxista Ravshanxon qizi | 70530101-Kimyo (fan yo'nalishi) | Ayrim ionlarning aniqlovchi ion selektiv elektrodlar membranasi tarkibi va tuzilishini o'rganish | Hozirgi kunda ion selektiv elektrodlar turli sohalarda keng qo'llanilmoqda. Shuning uchun ion selektiv elektrodlar yaratish sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu elektrodlarni qulayligi aralashmalar tarkibidagi ayrim komponentlarni selektiv aniqlash imkoniyatining mavjudligidir. Ushbu ishning | k.f.d.prof. E Abduraxmanov | k.f.d. M.M.Sultonov Jizzax davlat pedogogika universiteti |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | maqsadi: Ayrim ionlarni aniqlovchi ion selektiv elektrodlar membranasi tarkibi va tuzilishini o'rganishdan iborat. | | |
| 37 | Musayev Sobirjon Bobir o'g'li | 70220501-Falsafa(sohalar bo'yicha) | Sun'iy intelektning kognitiv aspektlari | Magistrlik dissertatsiyasida hozirgi kunda sun'iy intelekt bilan bog'liq kognitiv aspektlar, intelektual jaroyonlarni kibernrtik modellashtirish va inson ongi faoliyati bilan o'xshash bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshirishga keng imkon beruvchi intelektual mashinalarning yaratish sohasidagi metodologik yondashuvlar yoritib beriladi. Sun'iy intelekt muammosini ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganinsh shaxs va jamiat intelektual salohiyatini shakillantirishdagi innovasion imkoniyatlarini asoslashdan iborat. | DSc.dots. G.S.Sultanova | PhD. I.Rizayev |
| 38 | Kamoliddinov Davlatjon Utkirxon o'g'li | 70540101 Matematika (yo'nalishi | Buralishga ega chiziqlar va uning tadbiqlari | Bu yo'nalish garmonik analiz, zamonaviy matematik fizika va differensial geometriya | Professor I.A.Ikromov | Dotsent G.A.Xasanov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘yicha) | | kabi soxalarni qamrab olgan holda o‘rganiladi. Buralishga ega egri chiziqlarning Fure almashtirish lari bajariladi. | | |
| 39 | O‘ktamova Sabina G’olib qizi | 70540101 Matematika (yo‘nalishi bo‘yicha) | Jamlanuvchi funksiyalar fazosida takroriy maxsus integralning ba’zi bir xossalari | Jamlanuvchi funksiyalar fazosida takroriy maxsus integral uchun Zigmund tipidagi tengsizlik olish va bu tengsizlik asosida maxsus operatorga nisbatan invariant fazo qurish. | Dotsent T.Absalamov | Dotsent B.Fayzullayeva |
| 40 | Majidova Sarvinoz Roziqovna | 70540101 Matematika (yo`nalishlar bo`yicha) | O`zgaruvchan koeffitseyintli nochiziqli defokuslangan Shredinger tenglamasini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfida integrallash | Davriy koeffitseyintli Dirak tenglamalar sistemasiga qo`yilgan teskari spektral masalalar usulidan foydalangan holda, O`zgaruvchan koeffitseyintli nochiziqli defokuslangan Shredinger tenglamasiga qo`yilgan Koshi masalasini davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida topish algoritmi taklif etiladi | PhD. U.B.Muminov | Fiz.f.d. B.Babajanov Urganch davlat universiteti dotsenti |
| 41 | To’rayev Asliddin Baxtiyorovich | 70540101 Matematika (yo`nalishlar bo`yicha) | Ikki zarrachali sistemaga mos Diskret Shredinger operatorining xos qiymatlari soni va | Ikki zarrachali sistemaga mos Diskret Shredinger operatori qaraladi. Bu operatorning xos qiymatlar soni operator parametrlariga bog’liq | Akademik S.N.Lakayev | Dots. I.Bozorov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | joylashish o'rni. | ravishda o'rganiladi. | | |
| 42 | Sulaymonov Umar Akbdiraxmon o'g'li | 70530402 Geografiya (O'rganish obeykti bo'yicha) | O`rta Zarafshon havzasidagi drenaj tarmoqlarini GIS texnologiyalari yordamida baholash va xaritalashtirish | Bu tadqiqot ishida O`rta Zarafshon havzasidagi drenaj tarmoqlarini umumiy tasnifi yoritiladi, ularning xalq xo`jaligida foydalanish ko`rsatkichlari va to`plangan ma`lumotlar asosida GAT dasturlari yo`rdamida xaritalashtish amalga oshiriladi | PhD. R.I Mamajanov | t.f.n. E.Isakov Samarqand davlat arxitektura qurilish institute dosenti, |
| 43 | Jomolov Eliyor Abdurasul o'g'li | 70530402 Geografiya (O'rganish obeykti bo'yicha) | "Qizilqum cho`li geoekalogik holatini barqarorlashtirishda suniy agrofitozlarni yaratishning ilmiy-amaliy ahamiyati" | Bu mavzuda Qizilqum cho`li geoekalogik, meleioratsiya halotini kompleks o`rganish asosida hududiy olib borilayotgan zarur bo`lgan filomeliorotiv tadbirlar, ularni ekologik holatini barqarorlashtirishdagi ahamiyati to`liq yoritiladi. | Dots X.T.Nazarov | H.Halilov Qora ko`lchilik va cho`l ekalogiyasi ilmiy tatqiqot institutining katta ilmiy hodimi |
| 44 | Qudratov Shahboz Maxmud o'g'li | 70530402-Geografiya(O'rganish obeyktibo'yicha) | Brayl alifbosi yordamida mutaxassislik fanlarining mavzular tahlili (Umumiy Yer bilimi fani misolida | Tadqiqotda geografiya bo`yicha ko`zi ojizlar uchun Brayl alifbosida geografiya bo`yicha o`tiladigan mutaxassislik fanlarining tahlili, ko`rsatmalar yoriiladi | PhD. R.I.Mamajanov | t.f.n.dots. E.Isakov Samarqand davlat arxitektura qurilish institute |
| 45 | Lapasov | 70810702- | Makroo'g'itlar | Mikroelementlarni pomidor | q.x.f.d.,prof. | Dots.PhD. |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Vohid Akmalovich | Agrokimyo | fonida kompleks mikroo‘g‘itlarni qo‘llashning pomidor (Lycopersicon esculentum) hosildorligiga ta’siri. | hosili va sifatiga ta’siri o‘rganiladi. Tuproq tarkibidagi mikroelementlarning o‘simlikda to‘planishi; mikroelementlarni pomidor tarkibidagi kislota, qand va vitaminlar miqdorini oshirishi hamda pomidor sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishlarini o‘rganish lozim. | F.X.Xashimov | M.I.Mashrabov ToshDAU |
| 46 | Bahriyev Dostonjon Lutfulla og’li | 70812101 – Dorivor o‘simliklarni yetishirish va qayta ishlash texnologiyasi | Amarantning hosildorligi va dorivorlik xususiyatiga ekish muddatlarining ta’siri | Amarantning Samarqand viloyati tuproq iqlim sharoitida turli xil elkish muddalari hamda. ekish muddalarini Amarantning dorivorlik xususiyati va va hosildorligiga tasiri dala tajribalari asosida o’rhaniladi. Tajriba natijalari asosida Amarantning eng maqbul ekish muddati aniqlanadi. | q.x.f.d.,prof. A.L.Sanaqulov | |

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022-yil 30-dekabrdagi 445-ij sonli buyrug'iga 2-ilova

**Xalqaro ta`lim dasturlari fakultetida mavjud magistratura mutaxassisliklarining 1-bosqichida ta'lim olayotgan magistrantlarning ilmiy-tadqiqot yo'nalishi, ularning ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilari haqida**

**MA'LUMOT**

| № | Magistrantning F.I.Sh. | Mutaxassislik shifri va nomi | Dissertatsiya mavzusi | Annotatsiyasi | Ilmiy rahbar F.I.Sh, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni | Ilmiy maslahatchi, F.I.Sh ilmiy darajasi, unvoni va hamkor tashkilot yoki muassasa nomi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mamadaminov Oybek Nasirdinovich | Mexatronika va robototexnika | Lab VIEW dasturida ko'p maqsadli manipulyatorlar uchun intellektual boshqarish tizimini yaratish | Ishlab chiqarishda ko'p maqsadli manipulyatorlardan turli maqsadlarda keng foydalaniladi. Manipulyatorlarning ishlab chiqarishda foydalanish vazifalaridan kelib chiqib boshqarish tizimlariga ham o'ziga xos talablar qo'yiladi va zarur hollarda ba'zi o'zgartirishlar kiritish talab qilinadi yoki yangicha boshqaruv tizimi va dasturi talab qilinishi ham mumkin. | Fiz-mat.f.f.d. dots. J.T.Ro'zimurodov | t.f.n. O'.P. Boboyev "UzAutoTRAILER", muhandis konstruktori |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Shunday hollarda ko'p maqsadli manipulyatorlar uchun maxsus intelektual boshqarish tizimini yaratish zarurati tug'uladi. | | |
| 2 | Avazov Jaxongir Temir o'g'li | Geografiya | Samarqand viloyati rekreatsiya zonalari geomarketingi | Rekratsiya (sayohat, hordiq chiqarish, sanatoriya-kurort) xizmati mehnat qilish jarayonida sarflangan kuch, energiyani tiklashda muhim omil hisoblanadi. Rekratsiya resurslari ikki xil, ya'ni tabiiy rekratsiya hamda madaniy-tarixiy rekratsiyaga bo'linadi. Tabiiy rekratsiya resurslariga tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar zaminida vujudga kelgan sharsharalar, g'orlar, buloqlar, so'lim tog' yon bag'irlari kiradi. Tabiiy mhiti keskin o'zgargan, tig'iz infrastruktura sharoitida aholining tabiat qo'ynida, maxsus dam olish maskanlarida hordiq chiqarishga ehtiyoji kuchaymoqda. | g.f.f.d. R.I.Mamajonov | dots. M.R Usmonov SamDu ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi muduri |
| 3 | Abulov | Geografiya | O`rta Zarafshon | Jahonda noana'naviy | g.f.f.d. | t.f.n.dots. E.Isakov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Quronboy Ganjaboyevich | | havzasi muqobil energiya resurslari va ularni GIS texnologiyalari yordamida haritalashtirish | energiya manbalari, jumladan, quyosh, shamol, biogazdan elektr energiya olish, uning samaradorligini oshirish, energiya qurilmalarini yaratish, shu orqali atrof-muhitga chiqayotgan zararli birikmalar miqdorini kamaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz hududida noan'anaviy energiya manbalarini izlab topish, ularning energetik quvvatini aniqlash, ulardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Muqobil energiya resurslarini tadqiq etish, ularni harakat yo'nalishini aniqlash hamda O'rta Zarafshon misolida kartalashtirish, shamol elektr qurilmalarini joylashtirish | R.I.Mamajonov | Samarqand davlat arxitektura qurilish instituti |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | uchastkalarini kartaga tushirish hamda tayanch uchastkalari yordamida shamol tezligi, yo'nalishi va energetik salohiyatini monitoring qilish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. | | |

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022-yil 30-dekabrdagi 445-ij sonli buyrug‘iga 3-ilova**

**2022/2023-o‘quv yilida universitetda mavjud magistratura mutaxassisliklarining 2-bosqichida ta’lim olayotgan ayrim magistrantlarning ilmiy rahbarlari mehnat shartnomasi bekor bo’lganligi, boshqa ishga o’tganligi, o’quv yuklamalarida o’zgarish bo’lganligi sababli ularning ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilari haqida**

**MA’LUMOT**

| № | Magistrantning F.I.Sh. | Mutaxassislik shifri va nomi | Dissertatsiya mavzusi | Annotatsiyasi | Ilmiy rahbar F.I.Sh, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni | Ilmiy maslahatchi, F.I.Sh ilmiy darajasi, unvoni va hamkor tashkilot yoki muassasa nomi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ubaydullayev Hasan Toshpo‘lat o‘g‘li | 70811001-O‘simliklar himoyasi (usullar bo‘yicha) | Uzumning antraknoz kasalligi va unga qarshi kurashish choralari | Uzumda uchraydigan antraknoz kasalligini oldini olish va unga qarshi kurashish choralari o‘rganiladi | S.I.Axmedov | Akademik Maxmud Mirzaev nomidagi BU va VITI Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi B.Mirzohidov |
| 2 | Baxshilloyev G‘olibjon G‘aybullo o‘g‘li | 70811001-O‘simliklar himoyasi (usullar | SHaftolini barg bujmayishi kasalligi va unga qarshi kimyoviy | SHaftolini barg bujmayishi kasalligi kelib chiqish sabablari, tarqalishi, bioekologiyasi o‘rganiladi | S.I.Axmedov | Samarqand viloyati Jomboy tumani “Agromir” |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘yicha) | vositalarni qo‘llashning samaradorligi | va samarali fungitsidlarni ta’siri tadqiq qilinadi. | | firmasi agronom gruhi boshlig‘i Ishov A. |
| 3 | Ruziyev Rufat Zafar o‘g‘li | 70811001-O‘simliklar himoyasi (usullar bo‘yicha) | Tok xo‘raki navlarida Oidium kasalligiga qarshi fungitsidlarning samaradorligi | Fungitsidlarning tok xo‘raki navlarida Oidium kasalligiga qarshi kurashishda ularni qo‘llash me’yori va muddatlari samaradorligi o‘rganiladi | S.I.Axmedov | Akademik Maxmud Mirzaev nomidagi BU va VITI Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi B.Mirzohidov |
| 4 | Ahatov Ulug‘bek Muhiddinovich | 70811001-O‘simliklar himoyasi (usullar bo‘yicha) | Samarqand viloyati sharoitida unabi pashshasi (Carpomyia wesuwiana Costa.) bioekologiyasi, zarari va qarshi kurash usullarini takomillashtirish. | O‘zbekiston sharoitida unabi pashshasi (Sarpomyia Wesuwiana Costa) juda keng tarqalgan bo‘lib, unabi bog‘larida unabi pashshasining lichinkalari keltirgan zarari va unga qarshi kurashish choralari o‘rganiladi. | S.I.Axmedov | B.J.Mirzoxidov, Akademik Maxmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiytadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, .x.f.n. |
| 5 | Shukurova Mahliyo Qobil qizi | 70811001-O‘simliklar himoyasi (usullar bo‘yicha) | Samarqand viloyati sharoitida yong‘oq bitlariga qarshi insektitsidlarning samaradorligi. | Grek yong‘og‘i etishtirishda yong‘oq bitlari zararini kamaytirish va ularning miqdoriy zichligini monitoring qilgan holda | S.I.Axmedov | B.J.Mirzoxidov, Akademik Maxmud Mirzaev nomidagi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | insektitsidlar vositasida boshqarish hozirgi dolzarb vazifa hisoblanadi. SHu vajdan, insektitsidlarni samaradorlik darajasini o‘rganish asosida agro va biotsenozlarda yong‘oq entomofaunasini boshqarish muhim ahamiyatga ega. | | bogdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiytàdqikot instituti katta ilmiy xodimi, |
| 6 | Barakaeva Nilufar Zubaydullo qizi | 70310901 – Psixologiya (faoliyatning turli sohalari bo’yicha) | Talaba yoshlarda o‘zini-o‘zi idora qilishning ijtimoiypsixologik mexanizmlari | Talabalarni har tomonlama shakllantirish maqsadga muvafiqdir. Ya’ni avvalo talabalarda o‘z-o‘zini idora qilish ko‘nikmasini shakllantirish, irodaviy sifatlarni barqarorlashtirish lozim. Dissertatsiyada talabalarda o‘zo‘zini idora qilish mexanizmlari ochib beriladi va ilmiy asoslanadi | t.f.d.dots. N.K.Karimova | Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.S.Qodirov |
| 7 | Izzatova Shaxlo G‘ayrat qizi | 70310901 – Psixologiya (faoliyatning turli sohalari bo’yicha) | Maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologik yetukligining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari | Maktab yoshidagi o‘quvchilarnnig psixologik yetuklik mexanimzmlari, psixologik yosh va ijtimoiy yoshning bir-biriga mutonosib holda kechishi va uning bola shakllanishiga ta’siri ilmiy asoslanadi | dots.O.J.Suyunov | Z.Shodieva Samarqand viloyat xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 8 | Ismatova Gulnoza Shavkatovna | 70710402-Ekologiya (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | Samarqand viloyati tuproqlarini makrofaunalar yordamida bioindikatsiyalash | Samarqand viloyatida foydalanilayotgan qishloq xo'jaligi ekin yerlarida uzoq yillar davomida kimyoviy dorilarning ishlatilishi tuproq organizmlarini miqdori o'zgarishiga olib keladi. Ayrim makrofaunalar turlari indikator vazifasini bajaradi. | Jo'rayev Mo'min, biologiya fanlari nomzodi, dotsent | PhD.dots. Samiyev Luqmon Naimovich,. Atrofmuhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti |
| 9 | Jumayeva Lobar Ablakulovna | 70530101 – Kimyo (fan yo'nalishi bo'yicha) | Gomoveratrilaminni karbon kislotalar (sut, sarbin) bilan ta'sirlashish reaksiyalarini o'rganish | Yuqori samarali, kam zaharli preparatlar yaratish farmasevtika va kimyo sohasidagi eng muhim muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Tarkibida bir nechta farmakofor fragmentlar saqlagan havfsiz biologik faol moddalarni xususan, izoxinolin turkumiga mansub alkaloidlarni sintez qilish zamonaviy organik kimyoning muhim tarmoqlaridan biridir. | dots.D.To'rayev | dots.A.Saidov |
| 10 | Shakarov Sardor Nasriddin o'g'li | 70530101 – Kimyo (fan yo'nalishi | Biologik faol tetrogidroizoxinolin hosilalarining | Tetrogidroizoxinolin hosilalari orasida ko'plab biologik faol birikmalar | dots.D.to'rayev | dots.A.Saidov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘yicha) | kimyoviy o‘zgarishlari | topilgan. Tadqiqotning maqsadi ushbu birikmalarning kimyoviy o‘zgarishlari hamda biologik faolligi orasida bog‘liqlikni aniqlash, o‘rganish hisoblanadi. | | |
| 11 | Tirkashev Diyorbek Urchin o’g’li | 70540101 - Matematika (yo’nalishlar bo’yicha) | Parabolik sirtlarning differensial invariantlari | Uzluksiz va diskret matematikada gruppa ta’siri keng tarqalgan. Ular amaliy fanlarning turli sohalarida ham uchraydi, ayniqsa klassik mexanikada ko’proq uchraydi. Bu sohalarda invariantlardan foydalanish mumkin, masalan, jismning fizik simmetriyalarini hisobga olish orqali, jismni tahlil qilishda ma'lumotlar hajmini kamaytirishda foydalanish mumkin. Gruppaning algebraik yoki differentsial invariantlari ekvivalentlik masalalarini yechish, geometrik jismlarni tasniflash, ular uchun kanonik shakllarni topish, ularning simmetriyalarini | PhD.I.Akromov | Dots. X.Ruzimuradov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | bilish imkonini beradi. Ushbu ishda asosan parabolik sirtlarning harakatlar gruppasiga nisbatan differensial invariantlar o'rganiladi. | | |